

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 71-203-11-01, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Inoyatov Mirabbos Mirkomilovich

Sana: 11-12-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

268455 - SONLI

Obyekt nomi: O'z er uchastkasining yuridik xujjatiga ega qismida, «Er ostida avtoturargoh» qurish	
Buyurtmachi:	NOVOGET MCHJ QK
Bosh loyihachi:	"ARCH LAB" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Buyurtmachi tomonidan aniqlanadi.
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	099060

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2024-yil 12-oktabrdagi 1726262-136100-sonli ruxsatnomasi.

1.2. Belgilangan tartibda 2025-yilda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan va kelishilgan loyihalash topshirig'i.

1.3. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2023-yil 07-dekabrdagi №1726-1726262-99819-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025-yil 30-maydagi elektr tarmoqlariga ulanishga ruxsat berish to'g'risidagi 01-28-901-sonli xati.

1.5. "Toshkent shahar suv ta'minoti" AJ tomonidan 2025-yil 21-mayda berilgan 270/4-1614-sonli texnik sharti.

1.6. Buyurtmachi va loyiha tashkiloti o'rtasida 2025-yil 02-noyabrda tuzilgan 148-sonli loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash uchun shartnoma.

1.7. 2025-yilda «ALPS DYNAMIC» MCHJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydonchasining ma'lumotlari.

Tashqi havo harorati -13,6°S.

Normativ shamol bosimi - $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni - $S_n = 0,50$ kPa.

Hududning taxminiy seysmikligi - 9 ball.

Binoning poydevori uchun MGE-2 grundi xizmat qiladi.

MGE-2 – lyesssimon, jigarrang rangli, suvga to'yingan, qattiqdan suyuq plastik konsistensiyasigacha bo'lgan loylarni o'z ichiga oladi.

Elementning qalinligi 21,0-50,0m.

Yer osti suvlari yer yuzasidan 9,8m chuqurlikda joylashgan.

Tuproq-gruntlarning muzlash chuqurligi- 0,70m.

3.2. Bosh reja.

Loyihalananayotgan yer ostida avtoturargoh binolari Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Shirin MFY, Shayxzoda ko'chasi 1a-uy manzilida joylashgan.

Bosh reja topoasoslari 1:500 masshtabda ishlab chiqilgan, loyihada hudud qizil chiziqlar bilan chegaralangan.

Bosh reja mavjud rivojlanish va qo'shni hududning joylashuvi bilan birgalikda ishlab chiqilgan. Bosh rejada yer ostida avtoturargoh binolari ko'p qavatli turar-joy binolari oralig'ida joylashgan. Yer ostida avtoturargohi binolarining tepa qismida bolalar uyin maydochasi, sport maydonchasi va dam olish zonalari joylashtirilgan. Mikroiklim sharoitlarini yaratish uchun hududni kompleks obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ko'zda tutilgan, avtomobil yo'llari ajratilgan va hokazo.

Bosh reja texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Umumiy maydoni	-	2,650 ga
Qurilish maydoni	-	1,065 ga
Qoplamalar maydoni	-	1,029 ga
Ko'kalamzorlashtirish maydoni	-	0,556 ga

3.3. Arxitektura - rejalashtirish yechimlari.

Yer ostida avtoturargohi binolari Blok-1 va Blok-2 ikkita blokdan iborat.

Yer ostida avtoturargohi Blok-1 – yerosti 2 qavatli, rejadagi tarx o'lchami 60,4x60,4m. Avtoturargoh binoning pastki qavatlariga avtomobillarning kirish va chiqishi binoning 9-10 va 11-12 o'qlari oralig'ida rampalar orqali ko'zda tutilgan.

Binoning qavatlar balandligi $h=3,15$ m (poldan polgacha).

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy maydoni	-	3 65,5 m ²
Qurilish maydoni	-	2 457,3 m ²
Qurilish xajmi	-	15 480,9 m ³

Yer ostida avtoturargohi Blok-2 – yerosti 2 qavatli, rejadagi tarx o'lchami 57,0x94,0m. Avtoturargoh binoning pastki qavatlariga avtomobillarning kirish va chiqishi binoning 5-6 va 6-7 o'qlari oralig'ida rampalar orqali ko'zda tutilgan.

Binoning qavatlar balandligi $h=3,15$ m (poldan polgacha).

Binoning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning umumiy maydoni	-	5 650,0 m ²
Qurilish maydoni	-	3 400,0 m ²
Qurilish xajmi	-	21 420,0 m ³

Avtoturargohi binolarining ichki bezatish ishlari:

Devorlar-yaxshilangan suvoq, moyli bo'yog' bilan bo'yalgan.

Shift -tekislangan, bo'yoq bilan bo'yalgan.

Pollar –beton va boshqalar.

3.4. Konstruktiv yechimlari.

Avtoturargoh binolarining konstruktiv yechimi – yuk ko`taruvchi karkas – rama tizimli qattiq diafragmalarga ega monolit temirbeton karkasdan iborat.

Poydevorlar - 500 mm qalinlikdagi monolit temirbeton plita, beton sinfi kl.B25.

Yerto'la tirgak devorlari – 400 mm qalinlikdagi yaxlit temir-beton, beton sinfi B25.

Ustunlari - monolit temir-beton 500x500mm, 600x400mm, beton sinfi kl.B25.

To'sinlar - monolit temir-beton 500x500mm, beton sinfi kl.B25.

Orayopma va tom yopmalar – 200 mm va 300 mm qalinlikdagi monolitli temirbeton, beton sinfi kl.B25.

Zinapoyalar – monolitik temir-beton, beton sinfi B25.

3.5. Yong'in xavfsizligi.

Yong'inga qarshiligi – II toifa.

Binoning funksional yong'in xavf turi – F5.2.

Loyihada qo'riqlash va yong'in xavfida xabar berish tizimi ko'zda tutilgan. Yong'inni o'chirish yong'in gidrantlaridan amalga oshiriladi. Bino atrofida o't o'chirish mashinalari uchun yo'laklar mavjud.

3.6. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulaylik yaratish.

Ishchi loyihada ShNQ 2.07.02-24 «Qurilish ob'ektlarini nogironligi bo'lgan va hayot faoliyati cheklangan shaxslar hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish» shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan shart-sharoitlar ko'zda tutilgan.

3.7. Energiya tejamkorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va b.
- yoritish svetodiodli chiroqlar orqali bajarilgan va b.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Bino barcha muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: isitish, shamollatish, havoni tozalash, elektr ta'minoti, aloqa va signalizatsiya, videokuzatuv, suv ta'minoti va kanalizatsiya, xavfsizlik va yong'in signalizatsiyasi, yong'inni avtomatik o'chirish va boshqa tizimlar shaharning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi va loyihalash topshirig'i).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar Qurilish Bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-yil 28-fevraldagi 176700606-sonli xulosasi;

- "DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI" Toshkent shahar filiali (2025-yil 27-fevraldagi 01-02/14-4355-sonli Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi).

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **4 640 729 438** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

0 so'mga kamaytirilib, **4 640 729 438** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **4 123 322 627** so'm

Asbob-uskunalar: **20 185 800** so'm

QQS: **497 221 011** so'm

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining arxitektura va rejalashtirish, texnologik, muhandislik tarmoqlari, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari bo'yicha izohlarisiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihaga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

Buyurtmachining xati asosida smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda mahalliy ekspert tomonidan aniqlangan kamchiliklar va etirozlar to'liq qayta ko'rib chiqilishi va loyihalashtirishning keyingi bosqichida ekspertiza ko'rigiga taqdim etilishi kerak.

6.3. Qurilish qiymatining pasayishi qurilish materiallari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlari va boshqalarga aniqlik kiritish hisobidan kelib chiqdi.

6.4. Buyurtmachi va loyihachi ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin quyidagilarni taqdim etishi zarur:

- loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi;

- ob'ektni tashqi muhandislik tarmoqlari loyihalarini ishlab chiqishi va o'rnatilgan tartibda ekspertiza ko'rigiga taqdim etishi shart.

Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha-smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori 3-ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida "Mualliflik nazorati"ni amalga oshirilishini ta'minlaydi.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Shirin MFY, Shayxzoda ko'chasi 1a-uy manzilida joylashgan "Yer osti avtoturargohi" binolarini qurilishi" ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Mirbobayev Zakir Xusnitdinovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Akramov Sardor Galibovich, Xatamov Nurbek Choriyevich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Aliyev Shoxzodjon Farxodjon O'g'li